

KO'P VEKTORLI YONDASHUVLAR ASOSIDA TALABALARNING
KOLLOBORATIV KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK
TRENING USLUBI

Turemuratova Aziza Begibaevna

Qoraqalpoq davlat universiteti "Pedagogika va psixologiya" kafedrası assistenti.

Kenjayeva Marhabo Ahmatjonovna

Qoraqalpoq davlat universiteti talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15165659>

Annotatsiya. Ushbu maqola psixologik trening va pedagogik usullar orqali talabalarning hamkorlik ko'nikmalarini oshirishga bag'ishlangan. Ta'limda ko'p vektorli yondashuvlarga asoslangan yangi tizim yaratishda hamkorlikda o'qitish usullaridan foydalanish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz. O'quvchilarning dunyoqarashini shakllantirish, hamkorlikda ishlash ko'nikmalarini oshirish, psixologik treninglar orqali bilimlarini mustahkamlash orqali ta'lim samaradorligini yanada oshiramiz. Ushbu tadqiqot orqali biz guruhlar va jamoaviy ta'limning eng samarali usulini ko'rib chiqdik. Bu o'quvchilarning egallagan bilimlarini eslab qolish qobiliyatini oshiradi, erkin fikrlash, mulohaza yuritish, qaror qabul qilishga yordam beradi, degan fikrni ilgari surdik. Ushbu o'rganish davomida biz talabalar bilan psixologik trening orqali suhbatlar o'tkazdik va talabalarning fikrlarini tingladik.

Kalit so'zlar: Kolloborativ ta'lim, psixologik trening, pedagogik metodlar, psixologik salohiyat, pedagogik mahorat, zamonaviy ta'lim, kolloborativ ko'nikmalar, ta'lim texnologiyasi, didaktik ta'lim, individual yondashuv.

PSYCHOLOGICAL TRAINING METHOD FOR DEVELOPING STUDENTS'
COLLABORATIVE SKILLS BASED ON MULTI-VECTOR APPROACHES

Abstract. This article is a study of improving students' collaborative skills through psychological training and pedagogical methods. We believe that it is appropriate to use collaborative learning methods in creating a new system based on multi-vector approaches in education. We will further increase the effectiveness of education by forming students' worldviews, improving collaborative skills, and consolidating their knowledge through psychological training. Through this study, we considered the most effective approach to learning in groups and collectives. We put forward the idea that this increases students' ability to remember the acquired knowledge and helps them think freely, reason, and make decisions.

During this study, we conducted interviews with students through psychological training and listened to students' opinions.

Keywords: Collaborative learning, psychological training, pedagogical methods, psychological potential, pedagogical skills, modern education, collaborative skills, educational technology, didactic education, individual approach.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЙ ТРЕНИНГОВЫЙ МЕТОД РАЗВИТИЯ НАВЫКОВ СОТРУДНИЧЕСТВА СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ МНОГОВЕКТОРНЫХ ПОДХОДОВ

Аннотация. Данная статья посвящена совершенствованию навыков сотрудничества студентов посредством психологического тренинга и педагогических методов. Мы считаем целесообразным использование кооперативных методов обучения при создании новой системы, основанной на многовекторных подходах в образовании. Мы будем и дальше повышать эффективность образования за счет формирования мировоззрения учащихся, совершенствования их навыков сотрудничества и укрепления их знаний посредством психологического тренинга. В ходе этого исследования мы рассмотрели наиболее эффективный метод группового и коллективного обучения. Мы выдвигаем мнение, что оно повышает способность учащихся запоминать полученные знания, помогает им свободно мыслить, рассуждать и принимать решения. В ходе данного исследования мы провели интервью со студентами посредством психологического тренинга и выслушали мнения студентов.

Ключевые слова: Совместное обучение, психологическая подготовка, педагогические методы, психологический потенциал, педагогическое мастерство, современное образование, навыки сотрудничества, образовательная технология, дидактическое обучение, индивидуальный подход.

Introduction

Mamlakatimizda oliy ta'lim tizimining hozirgi taraqqiyoti bosqichida, zamonaviy ko'p vektorli pedagogik yondashuvlar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining milliy, tarixiy, mafkuraviy shart-sharoitlariga javob berishi, ta'limning an'anaviy modellari umumiy o'rta ta'lim maktablarida, hunar maktablarida, kasb-hunar kollej va texnikumlarida sinf dars tizimi, oliy ta'lim muassasalarida ma'ruza, seminar kabi ta'lim pedagogik metodlari, psixologik

treninglardan foydalanishda kolloborativ ko'nikmalarini oshirish bo'yicha tadqiqotlar bo'lgan vaqtda shu davrga mos keluvchi ta'lim texnologiyalarni qo'llash ijobiy natija berishi shubhasiz.

Rivojlangan mamlakatlarda keng qo'llanilayotgan hamkorlikda o'qitish (kolloborativ ta'lim), psixologik treninglar orqali pedagogik loyihalar metodi orqali talaba yoshlarning jamoa va guruh bo'lib bilim o'rganish har taraflama samarali ekanligini isbotlashga harakat qildik.

Taklif qilinayotgan zamonaviy ta'lim texnologiyalarining yana bir muhim jihati shundaki, hozirgi ta'lim tizimidagi ijobiy tomonlarni saqlagan holda, qo'llash imkoniyatining mavjudligi psixologik trening amalga oshirish uchun qulay sharoit hisoblanadi. Bundan tashqari, bu texnologiyalar falsafiy, psixologik, pedagogik, didaktik mohiyatga ko'ra, insonparvarlik tavsifga ega.

Bularning insonparvarlik tavsifi faqat nazariy-mafkuraviy jihatdan istiqlol mafkurasi talablariga mos kelishi emas, balki amaliy jihatdan ma'naviyati yuksak, barkamol insonni shakllantirishga yo'naltirilganligida pedagogik ta'limning zamonaviy kolloborativ usullarda psixologik treningdan foydalanish usulini misol qilib keltirish mumkin. Ular ta'limining tarbiyaviy mazmunini kuchaytirish, o'quv materialini talabalar jamoa bo'lib bir-biriga suyanib, hamkorlikda chuqur va puxta o'zlashtirishni, ularning intellektual axloqiy rivojlanishini, erkin va mustaqil fikrlashini ta'minlaydi. Bu esa o'z navbatida bir-biriga yordam berish muloqotining yaxshilashiga xizmat qiladi.

Hozirgi o'qitishda har bir ta'lim oluvchining faqat o'zi bilimni o'zlashtirishdan manfaatdorligi asosida unda shakllanuvchi raqobat, xislatlardan xalos bo'lishga zamin tayyorlaydi. Bu esa hozirgi ta'lim islohotining talablariga hamohang. Mazkur psixologik trening orqali pedagogic metodlarni tashkil qilish texnologiyalarning ta'limdagi asosiy mohiyati ta'lim oluvchi shaxs kamoloti, tanqidiy fikrlashi hamda o'ziga xos individualligiga asoslanishiga yordam beradi. Shu bilan birga talabalarning an'anaviy ta'limdagi faqat tayyor bilimlarni o'zlashtirish va ularni takrorlashga muqobil pedagogik metod sifatida xizmat qilishi.

Mazkur pedagogik metodlar va psixologik trening texnologiyalar metodik jihatdan - zamonaviy ta'lim modelining bosqichma-bosqich rivojlanish nazariyasiga mos kelib, kolloborativ ta'limni psixologik trening tarzda mazmun-mohiyati bilan zamonaviy ta'lim texnologiyalari asosida ko'rish imkoniyatini beradi. Taklif qilinayotgan kolloborativ ta'lim pedagogik metodlar va psixologik treninglar orqali ta'lim texnologiyalarini yaxlitlikda ta'lim jarayoniga qo'llash asta-sekin an'anaviy metodlardan voz kechib, zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatini yaratadi.

Ular psixologik va pedagogik mohiyati bilan insonparvarlik tavsifiga ega bo'lgan shaxsga yo'naltirilgan texnologiya sifatida qaralgan.

Hamkorlikda o'qitish metodini psixologik treninglar orqali o'rganish, loyihalar metodi, tabaqali o'qitish, Demak, talabalar zamonaviy ta'lim tizimi orqali kolloborativ ko'nikmalarini oshirishda zamonaviy psixologik treninglardan foydalanishda o'qituvchidan yuqori darajada pedagogik mahorat talab qilinadi. Psixologik salohiyatli o'qituvchi har taraflama o'ziga xos belgilari e'tibordan chetda qoldirmasligi lozim. Hamkorlikda o'qitish mohiyatini tushunish uchun pedagogik amaliyotda uchraydigan bitta faktga murojaat qilaylik. Bu ham bo'lsa, kolloborativ ko'nikmalar talabalarning ta'lim jarayonida o'quv materialini to'liq o'zlashtira olmasligi yoki amaliy ishlarda xato qilishi asosiy muammo sifatida qaralib kelmoqda. Bu kabi xatoliklar talabalarda noto'g'ri fikrlash, bilimning to'liqmasligi, diqqatini o'qishga qarata olmaslik tarzida bo'lishi mumkin. Buni tuzatish uchun qo'shimcha mashq qilish, qo'shimcha dars o'tish lozim bo'ladi. Bu xatolikni tahlil qilib, uni talabalarning ta'lim olishdagi faoliyati bilan bog'liqlik yoki talabalarning materialini o'zlashtirishlari uchun yetarli vaqt ajrata olmaganligi aniqlandi. Hamkorlikda o'qitish faqat ta'limiy jihatdan ahamiyatli bo'lmasdan, balki tarbiyaviy tomondan ham talabalarning intellektual va ahamiyatli kamolotiga kuchli ta'sir qiladi.

Hamkorlikda o'qitishning muhim jihati jamoaviy faoliyat ko'rsatish bo'lib, bunda talabalar o'zaro hamkorligi bir-biriga bog'liqlik hissiyotlari o'zaro harakatlarini, faoliyatini muvofiqlashtirish munosabatlari shakllanadi. Talabalar fikr yuritish, mulohaza qilish, qaror qabul qilish kabi hislatlari oshadi. Hamkorlikda o'qitish talabalarning ma'naviy yuksalishi, o'zgalar bilan o'zaro muloqotda bo'lishi, kolloborativ ko'nikma va malakalarini shakllanishi uchun muhim vosita hisoblanadi. Shu usullar orqali talabalarning dunyoqarashini shakllantirish va komil inson qilib tarbiyalay boshlab bir-biriga yordam hissiyotlarini rivojlantirib, darsda emas, balki yashash tarzida va butun hayoti davomida birovga yordamga kelish har qanday muammoni birgalikda hal qilishdan quvonish kabi shaxsiy sifatlarga aylanadi. Xo'sh hamkorlikda o'qitishning psixologik texnologiyasining mohiyati yoki didaktik asoslari nimada?

Bu usul talabalar harakatlarini ma'lum ketma-ketlik va izchillikda bajarishi bo'lib, o'qitishning u yoki bu metodlarini amalga oshirishni ta'minlaydi. Yoki pedagogik metodlar majmuasi bo'lib, ta'limga ma'lum ko'p vektorli psixologik treninglar orqali yondashishni ta'minlaydigan didaktik tizim yaratish imkoniyatini beradi.

Talabalarning o'quv faoliyatini tashkil qilishning turli metod va vositalari umumiy mantiqiy, hamkorlikda o'qitish prinsiplarini amalga oshirishga xizmat qiladi. Shu majmualar o'z navbatida ta'limda hamkorlikda o'qitishning texnologik ta'lim tizmi asosini tashkil etadi.

Faqat shunday asosda ko'rilgan didaktik tizim pedagogik jarayonda sinalgan metod va psixologik treningga asoslangan vositalar ta'lim texnologiyasi sifatida xizmat qilishi mumkin.

Didaktik ta'lim tizimning asosini o'qitish metodlari majmuasi tashkil etib, ular ma'lum nazariy asos, prinsiplarga va ta'lim konsepsiyasiga asoslanadi. Tanlanadigan o'qitishning metod va vositalari hamkorlikda o'qitish talablar fikridan kelib chiqishi lozim. Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi turli mamlakatlarda keng qo'llanilib kelinmoqda. Bunda uning hamma joyda bir xil qolipda emas, balki turli xilda qo'llab boyitish, turli variantlar shakllanishi e'tiborga molik.

Bunda asosiy e'tibor ta'limning guruhi maqsadiga qaratilib, guruh muvaffaqiyati uning har bir a'zosi mustaqil ishining natijasiga bog'liq bo'ladi.

Guruhning har bir a'zosi boshqalar bilan doimiy o'zaro hamkorlikda o'rganiladigan mavzu (muammo) ustida ish olib boradi. Guruh har bir a'zoning vazifasi birgalikda muammoni hal qilib, birgalikda bilish asosida komandaning har bir a'zosi zarur bilimlarni egallab, kerakli kolloborativ ko'nikma va psixologik malakalar shakllanishiga erishiladi. Bunda butun jamoa har bir talabaning nimaga erishganini bilishi muhim hisoblanadi. Butun guruh o'quv materialini uning har bir a'zosi egallashidan manfaatdor bo'ladi. Chunki butun jamoa muvaffaqiyati har bir a'zosining qo'shgan ulushi va guruhning hamkorlikda o'z oldiga qo'ygan masalaning yechilishiga bog'liq. Hamkorlikda o'qitishning jamoa shakli ta'labalarning ta'lim olishdagi faoliyatini tashkil qilishning pedagogic va psixologik texnologiyasi quyidagi uch asosiy prinsipga asoslanadi:

1. Taqdirlash butun guruh ball tariqasida yoki taqdirlash sertifikat, maqtov, maxsus mukofot sifatida birgalikdagi ishiga baho oladi. Buning uchun butun guruhga berilgan bitta topshiriq bajariladi.

2. Har bir talabaning shaxsiy mas'uliyati butun guruhning yutug'i va kamchiligini belgilaydi. Bu esa guruh a'zolarining har biri faoliyatini, shuningdek, boshqalar faoliyatini nazorat qilishi, o'quv materialini o'rtog'ining o'zlashtirishi va tushunishiga yordamlashishiga zamin hozirlaydi. Guruh a'zolarining o'z bilimlarini turlicha baholash va nazorat qilishga tayyor turishlarini ta'minlaydi.

3. Guruhlar har bir talabaning o'zlashtirishdagi teng imkoniyatlari o'z komandasiga olib keladigan yutuqlari avvalgi natijalarini yaxshilash asosida amalga oshiriladi.

O'zlashtirish natijalarini avvalgilari bilan taqqoslash aynan shu guruh talabalar erishgan natijalarini baholash imkoniyatini beradi.

Hamkorlikda kichik guruh – jamoa o'qitish; o'yin, turnir shaklda jamoa o'qitish; qolgan ikkitasi aksariyat hollarda ayrim fanlarni ma'lum yoshdagi talabalarga mo'ljallangan jamoada ta'limni tabaqalashtirib, ya'ni matematika fanini o'qitishda; o'qish, ijodiy insho yozishga hamkorlikda o'qitishda ijobiy natijalar berishi aniqlangan. Bunda o'qituvchi yangi mavzuni tushuntirib, so'ngra talabalarning guruhlarda uni mustahkamlashi, uning hamma jihatlarini anglab olishni topshiradi. Guruhlarda ma'lum topshiriqning zaruriy tayanch tomonlarini tinglash buyrug'i beriladi. Bunda topshiriqni ayrim qismlarga bo'lib, har bir talaba o'z qismini o'rganishi yoki aylanma tariqasida har bir talaba undan keyingi qismni bajarishi tarzida bo'lishi mumkin.

Topshiriqni bajarishni kuchli yoki bo'shroq o'zlashtiruvchi talabalar boshlashi mumkin bo'lgan holatlarda nazarda tutish, ammo har bir topshiriqni bajarishi, oshkora, ovoz chiqarib tushuntirishi va butun guruh nazorat qilishi lozim. Agar topshiriq guruh uchun bir xil bo'lsa, butun guruh topshiriqni bajarib bo'lgach, o'qituvchi darsni turli guruhlarining ishini umumiy holda muhokama qilsa bo'ladi. Agar topshiriq turlicha bo'lsa, har bir guruh alohida yakunlashi mumkin. O'quv materialini o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilganiga o'qituvchi ishonch hosil qilgach, ularning tushunganligi va o'zlashtirishni aniqlash uchun test sinovi o'tkazadi. Bunda o'qituvchi talabalarga individual yondashib, ularning bilim darajasini hisobga olgan holda, topshiriqni ta'minlaydi. Har bir talaba olgan baholari umumlashtirilib, guruhning umumiy bahosi e'lon qilinadi. Bunda kuchli talabalar bilan musobaqa qilmay, balki har bir talaba o'zi bilan musobaqa qilib, o'z vazifasini bajarib, guruhga baholarni ko'paytirishga intiladi. Ta'limni bunday tashkil qilishni aniq va tabiiy fanlarni ta'lim muassasalarida qo'llash mumkin.

Hamkorlikda o'qitishning pedagogik ko'p vektorli ta'lim texnologiyasining yana bir ko'rinishi jamoa - o'yin faoliyat orqali tashkil qilish hisoblanadi. Bunda ham avvalgidek, o'qituvchi yangi mavzuni tushuntiradi va talabalar o'quv materialini guruh bo'lib o'zlashtirishiga guruhli yo'naltiradi. Ammo o'zlashtirish natijalarini baholashda jamoalar o'rtasida haftalik musobaqa turnirlarini tashkil etadilar. Buning uchun uch nafar talabadan iborat-musobaqa stollarini tashkil qilinib, unda bir-biriga teng o'zlashtiruvchi talabalar musobaqani tashkil etadi. Bunday o'qitish amaliy psixologiya, tabiiy fanlarda ko'proq ijobiy natija beradi. Topshiriqlar tabaqalashtirilib, murakkablik darajasiga qarab beriladi. Har bir stol g'olibi o'z komandasiga bir xil miqdorda ballar keltiradi.

Bunda bo'sh o'zlashtiruvchilar ham o'z tenglari bilan musobaqalashib, jamoasiga baho keltiradi. Musobaqada eng ko'p baho to'plagan talabalar jamoasi g'olib deb e'lon qilinadi va taqdirlanadi.

Hamkorlikda o'qitishning pedagogik va psixologik trening orqali tashkil qilish texnologiyasining bu ko'rinishlaridan yana biri guruhda individual ishlash hisoblanadi. Bunda talabalarlar avval o'zlashtirgan bilimlarning natijasiga ko'ra, individual topshiriq olib, o'z ish sur'ati asosida uni bajaradi. Ta'limning bunday ko'p vektorli yondashuvlarga asoslangan shaklda jamoalar turli xil faoliyat bilan shug'ullanishi mumkin. Jamoa a'zolari bir-birlariga o'z individual topshiriqlarini bajarishda yordam berib, o'zlarining yutuq yoki o'zlashtirilishlarini maxsus jurnalda qayd qiladilar. Yakuniy baholash testlari talabalarning o'zlari tomonidan individual amalga oshiriladi. O'qituvchi har bir haftada jamoaning har bir a'zosi ishlagan mavzular va topshiriqlarni dastur va o'quv reja asosida hisobga olib boradi. Bunda o'qituvchi guruhlarining yutuqlarini alohida ta'kidlashi lozim. Talabalar o'zlari mustaqil ishlaganliklari uchun o'qituvchining alohida guruh yoki talabalar bilan individual ish olib borish imkoniyati kengayadi.

Talabalar faoliyatini ta'lim jarayonida bunday tashkil qilish ko'proq fizika, matematika, kimyo fanlarini o'qitishda qo'l keladi. Hamkorlikdagi ta'limning o'qishga va ijodiy faoliyatga tadbqiq qilish shakli ko'pincha pastki guruhlarda qo'llanilishi mumkin. Bunda 4 nafar talabalardan iborat guruh juftliklarga ajratiladi. O'qituvchi o'qitayotganlarning bir jufti bilan ishlayotganda boshqasi mustaqil bir-biriga o'qib berib, uning aytib berishi rejasini tuzadi. Asosiy fikrlarni ajratib, matndagi savollarga javob yozadi, to'g'ri yozish, lug'at bilan ishlashni mashq qiladi. Talabalar bilimni baholash testlari o'qituvchilarning to'la tayyorgarligiga ishonch hosil qilganidan keyin o'tkaziladi. Hamkorlikda ta'lim berishning kolloborativ usuli orqali - birgalikda o'qiyimiz pedagogik metodi texnologiyasida sinf turli xil o'zlashtiruvchi 3-5 nafar talabadan iborat guruhlarini saralab oladilar. Har bir guruh sinf umumiy mavzuning bir qismidan iborat topshiriq oladi. Guruh har bir a'zosining birgalikdagi ishi butun o'quv materialining o'zlashtirilishiga erishiladi. Asosiy ish prinsipi butun jamoani taqdirlash, talabalarga individual yondashish, har kimga teng imkoniyatlar yaratishdan iborat bo'ladi.

Guruhni taqdirlash har bir talabaning erishgan natijasiga bog'liq bo'ladi. Bunda o'qituvchi guruhlarini tuzishda talabalarning individual va psixologik xususiyatlarini va har bir guruh uchun aniq-mos topshiriq tuzishga e'tibor qaratish muhim ahamiyatga ega. Guruh ichida esa har bir talabaning o'rnini o'zlari belgilaydi.

Guruhlar ta'limning bu shaklda bilishi, ijodiy maqsad bilan birga, ijtimoiy-psixologik vazifa o'rtoqlarining topshiriqlarini bajarish madaniyati va o'zaro muloqotni nazorat qilishni amalga oshiradi. Ta'limning bu ikkala maqsadini o'qituvchi doimiy ravishda nazorat qiladi.

Xulosa

Hamkorlikda o'qitishning ko'p vektorli pedagogik-psixologik treninglar orqali o'qitishda yuqorida qarab chiqqan shakllari uchun umumiylik-maqsad va vazifalarning yaqinligi, talabalarning ta'lim olishda teng imkoniyatlari individual mas'uliyat hisoblanadi. Shu bilan birga guruhda raqobat emas, hamkorlik, guruh a'zolarining umumiy maqsad va muvaffaqiyatdan manfaatdorligi o'zaro belgilovchi omil hisoblanadi.

Teng imkoniyatlar talabalarning takomillashuviga zamin hozirlashini anglamoq va olg'a intilmoq muhim hisoblanadi. Eng muhimi ta'lim jarayonida o'qituvchining o'zni talabalarni mustaqil bilim olishga yordam berishi bilan belgilanadi. U talabalarga tayyor bilimlarni o'rgatishdan tashqari, ularni mustaqil, ijodiy fikrlashga o'rgatish, o'z shaxsi va bilimiga tanqidiy qarash, axborotlarni tahlil qilish, ulardan keraklisini ajrata olish, xulosalar chiqarish, o'z fikrlarini asoslashga o'rgatishning muhimligida o'z o'rnini anglaydi. O'rganiladigan muammo ustida mustaqil ishlash odatiy hol va faoliyatning asosiy yo'nalishi bo'lib qolishi hamkorlikda o'qitishning asosiy maqsadi hisoblanadi.

REFERENCES

1. Turemuratova, A. B., R. O. Minajov, and D. Yu Bekniyazova. "PEDAGOGICAL APPROACHES TO INCREASING THE ACTIVITY OF TEACHING STUDENTS IN THE COURSE OF LESSONS." Экономика и социум 10 (113)-1 (2023): 272-276.
2. Turemuratova, Aziza, et al. "DEVELOPMENT OF COLLABORATIVE SKILLS OF STUDENTS BASED ON MULTI-VECTOR PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL APPROACHES IN THE MODERN EDUCATIONAL PROGRAM." Инновационные исследования в науке 3.10 (2024): 49-52.
3. Turemuratova, Aziza, et al. "ANALYSIS OF PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL MECHANISMS OF DEVELOPING COLLABORATIVE SKILLS OF STUDENTS BASED ON A MULTI-VECTOR APPROACH." Современные подходы и новые исследования в современной науке 3.14 (2024): 46-49.
4. Turemuratova, Aziza, and Mahliyo Ruzimova. "PEDAGOGICAL ANALYSIS OF THE FORMATION OF COLLABORATIVE SKILLS OF STUDENTS BASED ON MULTI-

- VECTOR PEDAGOGICAL APPROACHES IN EDUCATION." Наука и инновации в системе образования 3.13 (2024): 88-92.
5. Turemuratova, Aziza, and Khurshida Atabaeva. "THE MAIN PEDAGOGICAL ASPECTS OF THE FORMATION OF COLLABORATIVE SKILLS OF STUDENTS BASED ON MULTI-VECTOR PEDAGOGICAL APPROACHES IN HIGHER EDUCATION." Академические исследования в современной науке 3.45 (2024): 30-33.
 6. Turemuratova, Aziza, and Sirgagul Orinbaeva. "MULTI-VECTOR RESEARCH ON IMPROVING STUDENTS'COLLABORATIVE SKILLS IN HIGHER EDUCATION BASED ON PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL APPROACHES." Современные подходы и новые исследования в современной науке 3.15 (2024): 140-143.
 7. Begibaevna, Turemuratova Aziza. "EFFECTIVE EDUCATIONAL INDICATORS OF MULTI-VECTOR APPROACHES IN FORMING COLLABORATIVE SKILLS OF STUDENTS BASED ON PEDAGOGICAL METHODS OF INNOVATIVE EDUCATION." International Journal of Pedagogics 4.11 (2024): 153-157.
 8. Begibaevna, Turemuratova Aziza. "THE ROLE OF PEDAGOGICAL METHODS BASED ON MULTI-VECTOR APPROACHES IN MODERN EDUCATION IN IMPROVING STUDENTS'COLLABORATIVE SKILLS." CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS 5.11 (2024): 98-102.
 9. Begibaevna, Turemuratova Aziza, and Ayimbaeva Aynura Rustamovna. "PEDAGOGICAL ANALYSIS AND ESSENCE OF MULTI-VECTOR APPROACHES IN IMPROVING STUDENTS'COLLABORATIVE SKILLS BASED ON THE EDUCATIONAL PROGRAM." CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS 5.11 (2024): 88-92.
 10. Begibaevna, Turemuratova Aziza, and Asamatdinova Bazargul Bakhadirovna. "PEDAGOGICAL FOUNDATIONS OF DEVELOPING STUDENTS'COLLABORATIVE SKILLS BASED ON A MULTI-VECTOR APPROACH." European International Journal of Pedagogics 4.11 (2024): 183-187.
 11. Begibaevna, Turemuratova Aziza. "APPLYING METHODS THAT IMPROVE STUDENTS'COLLABORATIVE SKILLS BASED ON MULTI-VECTOR PEDAGOGICAL APPROACHES." European International Journal of Pedagogics 4.11 (2024): 178-182.

12. Begibaevna, Turemuratova Aziza, Kushbaeva Indira Tursinbaevna, and Dawletmuratova Raxila Genjemuratovna. "THE MAIN ESSENCE OF DEVELOPING STUDENTS'COLLABORATIVE SKILLS BASED ON MULTI-VECTOR PEDAGOGICAL APPROACHES IN MODERN EDUCATION." CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS 5.09 (2024): 43-46.
13. Begibaevna, Turemuratova Aziza, Kujamuratova Gulnaz Jumabayevna, and Iskendarova Shayra Sabirovna. "PEDAGOGICAL MECHANISMS OF DEVELOPING COLLABORATIVE SKILLS OF STUDENTS BASED ON A MULTI-VECTOR APPROACH." International Journal of Pedagogics 4.09 (2024): 55-62.
14. Turemuratova, Aziza, Rita Kurbanova, and Barno Saidboyeva. "EDUCATIONAL TRADITIONS IN SHAPING THE WORLDVIEW OF YOUNG PEOPLE IN FOLK PEDAGOGY." Modern Science and Research 2.10 (2023): 318-322.
15. Turemuratova, Aziza. "TRADITIONS OF FORMING THE SPIRITUAL AND MORAL WORLDVIEW OF YOUNG PEOPLE IN PEDAGOGY." Евразийский журнал академических исследований 3.7 (2023): 225-229.